Toshkent shahar, Olmazor tumani
Davlat xizmatlari markazi
tomonidan 2026-yil __ -avgustda
_____ -son reestr raqami bilan
“RO‘YXATGA OLINDI”

“TASDIQLANGAN”
Murassis (ta’sischi):
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
rektori _____ Sh.A. Boymuradov
“21” 09 2026-yil

“MEDHUB SPIN-OFF” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING

USTAVI

Toshkent 2026 yil

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Toshkent Davlat tibbiyot universiteti qoshidagi "MEDHUB SPIN-OFF" mas'uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o'rinlarda "Jamiyat" deb yuritiladi) tijorat tashkiloti hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruvi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatda yangi ishlanmalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish tizimini joriy qilish hamda ilm-fanni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2026-yil 4-apreldagi PF-54-son Farmonida belgilangan topshiriqlarni ijrosini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026 yil 15 apreldagi 141-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

1.2. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mol-mulkka, mustaqil balansga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan valyuta hisob raqamlariga, emblemaga, shtamplarga va blankalarga, tovar belgilariga, o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va boshqa rekvizitlarga ega.

1.3. Mazkur ustav O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi qonuniga va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Jamiyat ishtirokchilarining 2026-yil 21-sentabrdagi Ta'sis shartnomasi asosida ishlab chiqilgan.

1.4. Jamiyatning rasmiy to'liq va qisqartirilgan nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi - "MEDHUB SPIN-OFF" mas'uliyati cheklangan jamiyati;

qisqartirilgan nomi - "MEDHUB SPIN-OFF" MCHJ;

b) rus tilida:

to'liq nomi – Общестvo s ogranichennoy otvetstvennostyu "MEDHUB SPIN-OFF"

qisqartirilgan nomi - OOO "MEDHUB SPIN-OFF"

v) ingliz tilida:

to'liq nomi – Limited Liability Company "MEDHUB SPIN-OFF"

qisqartirilgan nomi LLC "MEDHUB SPIN-OFF"

1.4. Jamiyatning joylashgan joyi (pochta manzili): Toshkent Davlat tibbiyot universiteti bosh o'quv binosi hududi: ***Toshkent shahri, Olmazor tumani, Shifokorlar MFY, Farobiy ko'chasi, 2-uy.***

II. JAMIYATNING USTAV FONDI.

2.1. Jamiyatning tashkil etilishi va faoliyatini amalga oshirishi uchun ta'sischilar 10 000 000 (O'n million) so'm miqdorida ustav fondi shakllantirishadi.

Jamiyatning ta'sischilari:

- Toshkent Davlat tibbiyot universiteti - 2 500 000 (ikki million besh yuz ming) so'm, ya'ni 25%;

- XOLBOYEV SANJARBEK OLIMJON O'G'LI - 7 500 000 (yetti million besh yuz ming) so'm, ya'ni 75%.

2.2. Ta'sischilarning Jamiyat ustav fondidagi ulushlari sifatida pullar, qimmatli qog'ozlar, boshqa ashyolar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul qiymatiga ega bo'lgan o'zga begonalashtiriladigan huquqlar bo'lishi mumkin. Uchinchi shaxslar tomonidan ishtirokchilarning jamiyat ustav fondidagi pul ko'rinishida bo'lmagan ulushlarini pul qiymatida baholash va

jamiyatga qabul qilish barcha ishtirokchilar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanadi.

2.3. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin bir yil mobaynida ta'sislarning har biri ustav fondidagi ulushini to'liq kiritadi va bu haqda ro'yxatdan o'tkazuvchi organga ma'lumot berishi lozim.

2.4. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish va kamaytirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ta'sischining qarori bo'yicha amalga oshiriladi.

2.5. Jamiyat o'z faoliyatida qonun talablariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, ta'sischilarning umumiy yig'ilish bayonlari topshiriqlari va buyruqlariga, shuningdek ushbu ustavga amal qiladi.

2.6. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni sotib olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi, nizolarni hal etishda boshqa organlarda vakillik qilishi mumkin.

2.7. Jamiyat ta'sischilarning roziligi bilan qonun hujjatlariga muvofiq yuridik shaxslarning qatnashishiga yo'l qo'yiladigan tijorat tashkilotlarida, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarda qatnashchi (a'zo) bo'lishi mumkin.

2.8. Jamiyat boshqa davlat Jamiyatsining ta'sischisi bo'lishi mumkin emas.

2.9. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etiladi.

III. JAMIYATNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq vakolatxonalar va filiallar Hamda boshqa alohida bo'linmalar tuzishga haqli.

IV. JAMIYAT FAOLIYATINING PREDMETI VA MAQSADLARI

Jamiyatning maqsadi. Jamiyatni tashkil etishdan asosiy maqsad – Jamiyat o'z ilmiy-tadqiqot, ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foyda olishni ko'zlovchi ilmiy yangiliklarni yaratuvchi va mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi, ishbilarmon hamda tijorat tashkilotidir.

4.1. Foyda olish, ta'sischilarning topshiriqlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, shuningdek ushbu ustavda ko'rsatilgan boshqa ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish Jamiyat faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

4.2. Jamiyatning asosiy faoliyati doirasi og'iz shilliq pardasi kasalliklarini erta aniqlash, rak oldi Holatlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida tashxislash, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, innovatsion-tibbiy texnologiyalarni ishlab chiqish, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va tijoratlashtirish Hamda boshqa O'zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida bo'lgan boshqa ishlarni bajarishdan iborat.

Jamiyatning asosiy faoliyat turlari: 47.19.0. Ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi.

- poligrafiya xizmatlari;
- ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa boshqa tovarlar chakana savdosi;
- sun'iy intellekt (AI) asosida brendbuk ishlab chiqish;
- ilmiy tadqiqotlar;
- grantlar, patentlar va litsenziyalar bilan ishlash;
- mutaxassislar tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

4.3. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat tegishli ruxsatnoma (litsenziya) olingandan keyin amalga oshiriladi.

V. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Jamiyat ishtirokchilari quyidagilarga haqlidirlar:

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

qonun hujjatlarida va jamiyat ta'sis hujjatlarida belgiiangan tartibda jamiyatning faoliyati to‘g‘risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

foydani taqsimlashda va uning tegishli qismini olishda ishtirok etish;

jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoxud uning bir qismini qonun hujjatlarida va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga yoxud uchinchi shaxslarga sotish yoki o‘zga tarzda ulaming foydasiga voz kechish;

jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'i nazar, qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyat ishtirokchilari tarkibidan chiqish;

jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulknmg bir qismini yoki uning qiymatini olish;

jami ulushlari jamiyat ustav fondining kamida o‘n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o‘z majburiyatlarini qo‘pol buzayotgan yoxud o‘z harakatlari yoki harakatsizligi bilan jamiyatning faoiiyat ko‘rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud tartihida chiqarilishini talab qilishga haqlidiriar;

jamiyat ishtirokchilari jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

5.2. Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari:

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilishlari;

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo‘shishlari;

jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari shart.

Jamiyat ishtirokchilariga jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatiar ham yuklanishi mumkin

VI. JAMIYAT FAOLIYATINI BOSHQARISH

6.1. Jamiyat o‘z faoliyatini quyi turuvchi rahbarlarning yuqori turuvchi rahbarlarga, shuningdek ta'sischilarga bo‘ysunishi hamda hisobdorligi asosida amalga oshiradi.

6.2. Ta'sischilar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

Jamiyat direktori va uning o‘rinbosarlarini tayinlash, mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ular bilan mehnat shartnomasini tuzish, ushbu tayinlashda ta'sischilarning o'zaro to'liq roziligisiz amalga oshirish mumkin emas;

Jamiyat faoliyatining maqsad, vazifa va funksiyalarini belgilash;

Jamiyatning ushbu ustavga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish;

Jamiyat ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida takliflar kiritish;

Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasini tayinlash va tugatish balansini tasdiqlash;

ta'sischi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin;

Jamiyatning mol-mulki va sof foydasini tasarruf etish.

6.3. Ta'sischilar quyidagilarga majbur:

Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtdan boshlab uch oy mobaynida uning ustav fondini shakllantirish.

6.5. Jamiyatni ta'sischilari tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor boshqaradi.

6.6. Direktor ta'sischilar o'zaro kelishuvi asosida tayinlanadi.

6.7. Direktor Jamiyatning ijro organi rahbari hisoblanadi va Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

6.8. Direktor bo‘lmaganda, uning vakolatlarini bajarish ta’sischilar tomonidan mas’ulga shaxsga yuklanadi.

6.9. Jamiyatning tarkibi har kalendar yiliga Universitetning o‘quv, ilmiy-innovatsion faoliyatining ustuvor yo‘nalishi, yil nomi bilan bog‘liq davlat dasturidan kelib chiqib shakllantiriladi va Universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi.

6.10. Universitetning innovatsion hamkorligini strategik rivojlantirish va shakllantirish masalalari Universitet Kengashi qarorlari va rektorning buyruqlari bilan tartibga solib boriladi.

6.11. Jamiyat faoliyatini boshqarish Jamiyat direktoriga yuklatiladi. Universitetni rivojlantirish strategiyasi doirasida Jamiyat to‘g‘ridan-to‘g‘ri Universitet rektoriga hamda “MEDHUB SPIN-OFF” MChJ rahbariyatiga bo‘ysunadi. Jamiyat direktori bir paytning o‘zida Universitet xodimi hisoblanishi mumkin.

6.12. Jamiyat o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishda Respublika ilmiy-ixtisoslashtirilgan Jamiyatlar, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining institutlari va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Jamiyat rahbariyati Jamiyat faoliyati bo‘yicha ta’sischilarga hisobdordir.

Jamiyatning sohaviy yo‘nalishlar bo‘yicha laboratoriyalar boshliqlari ta’sischilar bilan kelishilgan holda Jamiyat direktori tomonidan tayinlanadi.

VII. JAMIYAT USTAV FONDINING MIQDORI

7.1. Jamiyatning ustav fondi o‘zida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun unga ta’sischilar tomonidan tegishli tartibda berilgan mol-mulk va boshqa aktivlar jamini ifodalaydi. Biroq, Universitetga tegishli bo‘lgan va Jamiyatga foydalanish uchun berilgan moddiy boyliklar (bino va inshootlar, uskuna va jihozlar va boshqalar) Jamiyat ustav fondiga kritilmaydi.

7.2. Jamiyat ustav fondi 10 000 000 (o‘n million so‘m) so‘mni tashkil qiladi.

7.3. Jamiyatning ustav fondini ko‘paytirish va kamaytirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ta’sischilarning qarori bo‘yicha amalga oshiriladi.

VIII. JAMIYATNING MULKINI TASARRUF ETISH

8.1. Jamiyatning mulki:

ta’sischilar tomonidan zaruratga ko‘ra Jamiyatga tezkor boshqarish huquqi bilan vaqtinchalik biriktirilgan mulk;

Jamiyat faoliyatidan olingan daromadlar;

qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Jamiyat mulkining qiymati Jamiyat mustaqil balansida aks ettiriladi.

Jamiyatning mol-mulki bo‘linmasdir, Jamiyat xodimlari o‘rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

8.2. Jamiyat mulki quyidagi hollarda ta’sischilar bilan kelishilgan holda Jamiyat direktori tomonidan tasarruf etiladi:

asosiy vositalarni sotish, shu jumladan Jamiyatga tegishli bino va inshootlar (jumladan, qurilishi tugallanmagan), ularni ijaraga berish yoki garovga qo‘yish;

Jamiyatga tegishli bino va inshootlar (jumladan, qurilishi tugallanmagan) O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan realizatsiya qilinadi.

Jamiyatga tegishli bino va inshootlarni (jumladan, qurilishi tugallanmagan) sotishdan tushgan mablag‘lar, ularni sotib olish manbalaridan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan mablag‘lar sifatida taqsimlanadi.

IX. JAMIYAT FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH

Jamiyatning asosiy daromad manbai quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi va boshqa tashkilotlar tomonidan tanlovlar natijalari bo‘yicha ajratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tematik grantlar;
- Spin-off do‘konda sotilgan tovarlar;
- shartnoma asosida ko‘rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar, jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezedentlarining homiylik xayriyalari;
- Jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv, ilmiy-innovatsion yoki boshqa (dasturiy mahsulotlar, marketing, axborot-tahliliy, patent-litsenziyalangan, o‘quv-uslubiy va h.k.) mahsulot xizmatlarini amalga oshirish, o‘quv kurslarini tashkil etish, ilmiy jurnallarni yuritish, mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish hisobiga olingan daromadlar;
- pulli ta’lim xizmatlari va iqtisodiyotning dolzarb mavzulari bo‘yicha konsalting xizmatlari hisobiga olingan daromadlar;
- Jamiyatga innovatsion biznesni rivojlantirish uchun uchinchi shaxslar tomonidan yoki korporativ aloqalar doirasida ajratilgan maqsadli moliyaviy, homiylik yoki xayriya mablag‘lari;
- Jamiyat va tashkilotlar bilan ilmiy tadqiqotlarni bajarish, ilmiy seminarlarni o‘tkazish bilan bog‘liq tuzilgan xo‘jalik shartnomalarini amalga oshirishdan olingan daromadlar;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa faoliyatlar hisobiga olingan daromadlar.

X. DAROMAD (FOYDA)NI TAQSIMLASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI

10.1. Jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan tushadigan tushumlarning taqsimlanishi ta’sischilarning navbatdagi yoki navbatdan tashqari majlis bayonnomalarida kelishiladi va har bir ta’sischining hisob raqamiga o‘tkaziladi.

10.2. Barcha soliqlar va O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlatning maqsadli jamg‘armalariga boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek Jamiyatning sof foydasidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga belgilanadigan ajratmalar to‘langandan so‘ng Jamiyatning sof foydasi o‘z ixtiyorida qoladi va undan ta’sischi bilan kelishilgan holda foydalanadi.

10.3. Jamiyat ustav fondining 15% miqdorida zaxira fondi shakllantiradi. Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash va qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning ustav fondidagi ulushni (ulushning qismini) sotib olish uchun mo‘ljallangan.

10.4. Jamiyat barcha soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘laganidan keyin uning hisobida qolgan mablag‘lar Jamiyatning foydasini tashkil etadi.

10.5. Jamiyat daromadi (foydasi) va zararlari ta’sischilar o‘rtasida quyidagicha taqsimlanadi:

- Toshkent davlat tibbiyot universiteti - 25%;

- XOLBOYEV SANJARBEK OLIMJOB O‘G‘LI - 75%.

XI. ISHTIROKCHILARNING ISHTIROKCHILAR SAFIDAN CHIQISHI VA UNING OQIBATLARI

11.1. Jamiyatning ishtirokchisi Jamiyat ishtirokchi safidan chiqish huquqiga ega.

11.2. Ishtirokchi ishtirokchilar safidan chiqishida unga o‘zi tomonidan ustav fondiga kiritilgan ulushning haqiqiy qiymati natura yoki haqiqiy qiymatiga teng bo‘lgan pul ko‘rinishida qaytariladi.

11.3. Jamiyat ishtirokchisi o‘zgartirilganidan keyin jamiyatning ta’sis hujjatlariga zaruriy o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritishi lozim.

11.4. Jamiyatning ta’sis hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

XII. JAMIYAT ISHTIROKCHISINING JAMIYAT USTAV FONDIDAGI ULUSHINING (ULUSHI BIR QISMINING) UCHINCHI SHAXSLARGA O‘TISHI

12.1. Jamiyat ishtirokchidan Jamiyatning ustav fondidagi o‘z ulushini yoki ulushining qismini Jamiyatning uchinchi shaxslarga sotishga yoki boshqacha shaklda ularning foydasiga voz kechishga haqli.

12.2. Jamiyat ishtirokchisining ulushi to‘liq to‘langan davrgacha bo‘lgan muddatda to‘langan qismi bo‘yichagina begonalashtirilishi mumkin.

12.3. Jamiyat ustav fondidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsning foydasiga voz kechish, oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak.

XIII. JAMIYATNING HUJJATLARINI SAQLASH

13.1. Jamiyat quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:

• Jamiyatning ta’sis hujjatlari, shuningdek Jamiyatning ta’sis hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar;

• Jamiyat muassislari yig‘ilishining Jamiyatni tashkil etish va Jamiyatning ustav fondiga qo‘shiladigan pulsiz hissalarning pul bahosini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorni, shuningdek Jamiyatni tashkil etish bilan bog‘liq boshqa qarorlarni o‘z ichiga olgan bayonnomasi;

• Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;

• Jamiyatning o‘z balansida turgan mol-mulkka bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

• Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari to‘g‘risidagi nizomlar;

• Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishlarining, Jamiyat kuzatuv kengashi, Jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi va Jamiyattning taftish komissiyasi majlislarining bayonnomalari;

• Jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosalari;

• qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

13.2. Yuqorida aytib o‘tilgan hujjatlar ijro etuvchi organ joylashgan joyda saqlanadi.

13.3. Agarda amaldagi qonun hujjatlari bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lmasa, Jamiyat mazkur ustavda ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlarni doimiy saqlaydi.

13.4. Jamiyat ishtirokchining talabi bilan unga axborot, shuningdek ta’sis hujjatlarini unga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan taqdim qilishi yoki nusxa berishi shart.

XIV. HISOB VA HISOBOT

14.1. Jamiyat o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va o‘z mahsuloti va xizmatlariga narxlarni bozor konyukturasidan kelib chiqib belgilaydi.

14.2. Jamiyat mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini, statistika va moliyaviy hisobotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

14.3. Jamiyat faoliyatiga oid hisobotlarni qonunda belgilangan tartibda davlat organlariga taqdim qiladi.

XV. JAMIYAT DIREKTORINING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI

15.1. Jamiyat direktorining huquqlari:

Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish ko‘rish, mamlakatimizdagi barcha Jamiyatlar, firmalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalash;

xodimlarni mutaxassisligi bo‘yicha ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalari tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar berish;

kadrlarni qayta tayyorlash, kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularning malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

Jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar, farmoyishlar, vazifalar, ko‘rsatmalar va boshqa xildagi topshiriqlar berish;

ta’sischilar tomonidan tasdiqlangan tashkiliy tuzilma doirasida u bilan kelishgan holda Jamiyat xodimlari shtatlar jadvalini tasdiqlash va o‘zgartirish kiritish;

Jamiyatning faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Direktor o‘z huquqlarini amalga oshirishda Jamiyat manfaatlarini ko‘zlab ish ko‘radi.

15.2. Jamiyat direktorining majburiyatlari:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, ta’sischilar nizomiga, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari hamda boshqa qonun hujjatlari bilan yuklangan vazifalarning bajarilishini tashkil etish;

Jamiyat faoliyatini samarali yuritilishini tashkil etish, ish rejalarini tasdiqlash, ularning amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta’minlash;

Jamiyat faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish va xodimlar tomonidan topshiriqlarni o‘z vaqtida hamda sifatli ijro etilishi ustidan shaxsiy javobgarlikni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

Jamiyat tizimidagi xodimlarni o‘rnatilgan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish;

sertifikatlashtirish, tasniflash va mahsulotlarni sinash usullari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash (qayta tayyorlash, malakasini oshirish), Jamiyat xodimlarining kadrlar zaxirasini shakllantirish va malakasini oshirish ishlarini amalga oshirish;

tashkiliy tuzilmaga asosan Jamiyat xodimlarining lavozim majburiyatlari va vazifalarini belgilash;

Jamiyat faoliyatining alohida soha yo‘nalishlariga rahbarlik qiluvchi o‘rinbosari va boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligi darajasini belgilash;

davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish doirasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;

davlat siriga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish.

Direktor mazkur Ustavda Jamiyatga yuklatilgan vazifa, funksiya va majburiyatlarning bajarilishiga, Davlat byudjetiga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlarning, ish haqining o‘z vaqtida to‘lanishi, mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarning belgilangan normalar asosida hisoblanishi, pul mablag‘larini maqsadli sarflanishi uchun o‘zining xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan Jamiyatga yetkazilgan zarar, shu jumladan davlat mulkiga zarar yetkazilganda ham qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

XVI. JAMIYATNING JAVOBGARLIGI

16.1. Jamiyat o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi. Jamiyatning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda ta’sischilar Jamiyatning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javob beradi.

16.2. Jamiyat ta’sischilarning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

XVII. JAMIYATNING BOSHQA BO‘LIMLAR BILAN ALOQASI

Jamiyat o‘z faoliyati bo‘yicha Universitetning quyidagi bo‘limlari bilan o‘zaro aloqalar olib boradi:

- Universitetning ilmiy, o‘quv va ishlab chiqarish bo‘linmalari Jamiyatni ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida olingan ilmiy-texnik mahsulotlar haqidagi hujjat va ma’lumotlar bilan ta’minlaydi;

- ma’muriy bo‘linmalar Jamiyatga Universitetning intellektual mulk masalalari bo‘yicha boshqa Jamiyatlar bilan munosabatlariga doir me’yoriy-huquqiy va tashkiliy hujjatlarni hamda axborotni taqdim etadi;

- Jamiyatning Universitetdagi boshqa tarkibiy bo‘linmalar bilan munosabatlari Universitet rektori tomonidan tasdiqlangan Jamiyat to‘g‘risidagi nizom bilan belgilanadi;

- Jamiyatning boshqa tashkilotlar bilan munosabatlari Universitet tomonidan Jamiyat va ichki lokal hujjatlarning vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha tuzilgan shartnomalar shartlari bilan belgilanadi;

- Jamiyat Universitet fakultetlari, kafedralari bilan ta’lim, ilm-fan, bilimlarni tijoratlashtirish, xalqaro va respublika grantlarida ishtirok etish, xalqaro ilmiy-texnikaviy bazalar tarkibida bo‘lgan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion hamkorlik faoliyatini tashkil etish va olib borish bilan bog‘liq barcha masalalar bo‘yicha;

- Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor bilan zaruratga ko‘ra Jamiyat moddiy-texnik bazasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha (byudjetdan tashqari mablag‘lar doirasida);

- Buxgalteriya bo‘limi bilan xo‘jalik va moliyaviy masalalar bo‘yicha;

- Reja-moliya bo‘limi bilan bo‘limning shtat birligini ta’minlash bo‘yicha (umumiy asosda);

- Texnik foydalanish va xo‘jalik bo‘limi bilan ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion hamkorlik faoliyatini olib borish uchun kerakli moddiy-texnik baza bilan ta’minlash masalalari bo‘yicha;

- Xalqaro hamkorlik bo‘limi bilan xalqaro grantlar bilan ishlash;

- Raqamlashtirish va ta’lim texnologiyalari bo‘limi bilan Jamiyatni kompyuter texnikasi bilan ta’minlash va ularga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha; xalqaro anjumanlar, simpoziumlar hamda seminarlarni tashkil etish masalalari bo‘yicha;

- Axborot-resurs markazi bilan ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion hamkorlik ishlari uchun kerakli axborot ma’lumotlari bilan ta’minlash masalalari bo‘yicha;

- chiqariladigan buyruqlarning loyihalarini qonun hujjatlariga mosligi yuzasidan yuriskonsult bilan kelishish, tuziladigan xo‘jalik shartnomalarining qonunchilikka muvofiqligi va shu kabi masalalar bo‘yicha.

XVIII. JAMIYATNING ISH TARTIBI VA TARKIBI

Jamiyat xodimlarining ish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va boshqa qonun hujjatlari, Universitet Ustavi va Ichki mehnat tartibi qoidalariga asosan belgilanadi.

Jamiyat direktori Jamiyat vazifalarining bajarilishini inobatga olib, Jamiyat xodimlarining ish tartibini belgilaydi.

XIX. XODIMLAR

Jamiyat ma'muriyati xodimlar bilan jamoa shartnomasini imzolaydi. Ushbu shartnomaning mazmuni, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, mazkur ustav, shuningdek Jamiyat faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

XX. JAMIYATNING TIJORAT SIRI

20.1. Jamiyatning tijorat siri — uchinchi shaxslarga noma’lumligi sababli tijorat qimmatiga ega bo‘lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo‘lib, ushbu axborot Jamiyat tomonidan uning maxfiyligini muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlami ko‘radi.

20.2. Tijorat sirining muhofaza qilinishini ta’minlash maqsadida xodim:

ish beruvchi tomonidan o‘rnatilgan tijorat siri rejimiga rioya etishi;

ish beruvchining roziligisiz tijorat sirini oshkor etmasligi va undan shaxsiy maqsadlarda foydalanmasligi;

mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilinganda o‘z foydalanishida bo‘lgan, tijorat siri aks etgan moddiy jismlarni ish beruvchiga topshirishi yoki uni mazkur jismlardan ish beruvchining nazorati ostida yo‘q qilib yoxud o‘chirib tashlashi shart.

XXI. JAMIYATNI TUGATISH VA QAYTA TASHKIL ETISH

21.1. Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49 — 55-moddalarida va «Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 60 — 66-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

21.2. Jamiyatni qayta tashkil etish ishtirokchilarning umumiy yig‘ilishi qarori bo‘yicha qo‘shib yuborish, birlashtirish, bo‘lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish shaklida amalga oshirilishi mumkin.

21.3. Jamiyat belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda Jamiyat ishtirokchi qarori bo‘yicha tugatilishi mumkin. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra sudning qaroriga binoan ham tugatilishi mumkin.

21.4. Jamiyatning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo‘yilganidan so‘ng Jamiyatni tugatish tamomlangan, Jamiyatning faoliyati esa tugagan hisoblanadi

XXII. NIZOLARNI HAL QILISH

22.1. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo‘li bilan hal qilish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda ular sud orqali, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

XXIII. YAKUNIY QOIDALAR

23.1. Mazkur Ustav Jamiyat O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

23.2. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.

XXIV. ISHTIROKCHILAR

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

rektori Sh.A. Boymuradov

“MEDHUB SPIN-OFF” MCHJ

direktori S. Xolboyev